



## ADABIYOT DARSLARIDA BADIY MATN TAHLILIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR SAMARADORLIGI

**Tillayeva Rayxona Tuxtasinovna**

Namangan davlat pedagogika instituti

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasini mudiri,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

email: [rayxona\\_tillayeva\\_05@mail.ru](mailto:rayxona_tillayeva_05@mail.ru)

**Annotatsiya:** Shaxs intellektual kamoloti samaradorligiga qaratilgan o‘quv tadqiqoti faoliyati bilan bog‘liq badiiy matnni tahlil qilish o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy qobiliyati, erkin fikrlashi, faolligi va mustaqilligini, bir so‘z bilan aytganda, kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Kichik tadqiqotlar olib borish bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, asosli javob topish jarayonida noto‘g‘ri vaziyatlarni xotirjamlik bilan hal etish qobiliyati, masalaga xolis munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada o‘quvchilarda masalaga nisbatan e‘tiborli bo‘lish, aniqlik, murakkab vaziyatlarda voqealarni obyektiv baholash ko‘nikmalari va ijodkorlik sifatleri rivojlantiriladi. Maqolada mazkur jihatlar xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *qiyosiy metod, taqdiqotchilik, muammoli ta’lim, kognitiv faollik, tadqiqot darsi, fikrlash darsi, mulohaza yuritish, ijodiy ishlar yaratish.*

Malumki, metodik adabiyotlarda savollar ikki guruhga ajratiladi. Birinchisi, aniqlash mazmunidagi savollar. Masalan, bu to‘g‘rimi (to‘g‘ri); buni yaratish zarurmi (zarur) kabi. Aniqlash mazmunidagi savollar oddiy yoki murakkab holda tuzilgan bo‘lishi mumkin. Murakkablari esa aslida bir nechta savollardan iborat savollardir. Oddiy savollar ikki guruhga bo‘linadi: shartli va shartsiz. Masalan, J.Londonning “Hayotga muhabbat” asari bo‘yicha “Yo‘lovchi kim?” – oddiy shartsiz savol. “U Billdan o‘zini olib ketishini so‘rganida, do‘stining yordamiga ishongani rostmi? savoli oddiy shartli savolga misol bo‘la oladi. Shuningdek, bir nechta oddiy savollarga bo‘linadigan murakkab savollar ham mavjud. Xususan, “Yo‘lovchi oltinlarni olib ketishni afzal ko‘rdimi yoki joni omon qolishni?” va h.k.



Ta’lim amaliyotida savollarning boshqa turlari, xususan, to’ldiruvchi savollar ham mavjud. Ularga: qayerda?, qachon?, qanday?, kim?, nima?, nima uchun? kabi olmoshlar kiradi. Bunday mazmundagi savollar oddiy yoki murakkab tarzda tuziladi. Masalan, “Voqealar qachon, qayerda va kimlar ishtirokida sodir bo’ldi?” va h.k. Tuzilishi jihatidan murakkab savol bo’lsa ham uning javobini osongina uchta alohida javob orqali bilib olish mumkin. Adabiyot darslarida aqliy faoliyat elementlarining tarkib topishi muammoli vaziyatlarni o’quvchilar hukmiga havola qilinishidan boshlanishi ma’lum bo’ladi. Agar o’quvchi notanish vaziyatlarga duch kelganida haqiqatan ham hayratlansa, albatta, harakat qilishni o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Masalan, biror asar qahramoni tushgan murakkab vaziyatlarda qanday yo’l tutish mumkinligi yuzasidan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradigan va tahlil qilib unga yechim topishga harakat qiladigan o’quvchilar kam emas. Buni o’quvchilarning qiziqishlari, hayotga nisbatan shakllanayotgan qarashlari, ma’lum tajribasi yoki yosh xususiyatlari ham taqozo etadi. Masalan, 11-sinfda A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani qahramoni Zaynab obrazi qismatini tadqiq etish vazifa qilib berilgan darslarda uning ota uyidagi hayoti, kelinlik davri va qotilikka qo’l urgandan keyingi kunlarini taftish qilish “xarita”sini tuzish, xarakeri shakllanishidagi har bir voqea yoki unga ta’sir ko’rsatgan omillarni baholash orqali vaziyatning tub sabablari ayonlashadi. Bu usul qahramonlar ichki duniyosini taftish qilish yo’lidagi urinishlar natijasi o’laroq, sabab va oqibatlarini aniqlash kabi tadqiqotchilik kompetensiyalari elementlarini rivojlantirishdagi ierarxiyadir. Aslida, qotilikka butun oila a’zolarining Kumushga iliq munosabatlari sababi yoki uning fikri bilan hisoblashishga e’tiborsizlik qilgan ota-onasimi yoxud opasi Xushro’yning maslahati zamiridagi haqiqatni ko’ra olmaslik sifatimi, shu kabi jihatlarga oydinlik kiritiladi. Natijada muayyan obrazning sirtdan qaralganda aniq ko’zga tashlanmaydigan, lekin botinan dard chekishga majbur qilgan asoslar muayyan darajada ravshanlashadi.

O’quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muammoni ko’rish, savol berish va



tushunchalarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish usullaridan foydalanish mumkin. Albatta, muammoni aniqlash murakkab jarayon. Muammoni ko‘rish qobiliyati tadqiqot darslarida rivojlantiriladi. Savol berish va javob olish o‘quvchilar uchun qiziqarlidir. Ayniqsa, o‘zi avval bilmagan va eshitmaganlari haqida tinglash maroqli va huzurbaxsh. Javobni to‘laqonli olish ham o‘smirlarda qoniqish hissini hosil qilishi bilan ahamiyatlidir.

Darslarda o‘quvchilarning savollariga, savollarida nimani qo‘yayotganiga diqqat qilinsa va bu harakatlari qo‘llab-quvvatlansa, muhokama jarayonida nutqi, tasavvuri va tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatiladi. Bu haqda metodist olim R.Niyozmetova yoritganidek, “O‘spirinlik yoshida o‘z-o‘zini anglash, atrofdagilarning axloqiy-ruhiy fazilatlarini bilish va baholash, o‘z his-tuyg‘ulari va kechinmalarini tushunishga ehtiyoj paydo bo‘ladi, bu holat tufayli ana shu ehtiyojni qondira oladigan adabiy matnlarni o‘qib-o‘rganish istagi yuzaga keladi. O‘quvchi asar muallifining niyatini, qahramonga munosabatini, voqea va hodisalarning sabab va natijalarini mushohadadan o‘tkaza boshlaydi. Bu jarayon turmush haqiqatini tadqiq etish bilan bog‘liq holda kechadi. Uning mustaqil izlanishlari to‘g‘ri yo‘ldan borsa va to‘g‘ri yechimga olib kelsagina, o‘z ishidan qanoatlanadi, bu ishni davom ettirish sari ruhlanadi. Ana shu izlanishlarda o‘quvchi to‘g‘ri yo‘nalish beradigan, ba‘zan ikki yo‘ldan birini tanlash vaziyatiga soladigan, chuqur mushohadaga undaydigan turtkilar kerak bo‘ladi, xolos. Matnga doir beriladigan savol va topshiriqlar ana shunday turtki vazifasini bajarmog‘i lozim” [2: 145-b.].

“Hayotga muhabbat” hikoyasini o‘rganish chog‘ida Bill va yo‘lovchining xatti-harakatlari misolida muammoli savollar tuzish, muammoning o‘zini o‘quvchilar e‘tiboriga havola qilib ularni fikrlashga undash mumkin. “Bill o‘z nafsining qurboni”, “Agar Yo‘lovchi Billning harakatlarini takrorlaganda voqealar qanday davom etardi?”, “Agar Bill sherigi bilan qolganida edi...”, “Agar Yo‘lovchi bo‘ridan qo‘rqmaganida edi...” va h.k. Shu o‘rinda darsliklardagi savollar

mazmuniga to‘xtalinsa, qo‘yilgan o‘nta savoldan birortasida o‘quvchining mantiqan fikrlashga undaydigan muammoli savollar kuzatilmaydi. Balki matnga qayta murojaat qilishga olib keladi:

“1. Matndan inson va tabiat munosabati tasvirlangan epizodlarni qayta o‘qing, ularga munosabat bildiring”, “2. Bill hamrohini qachon, qayerda va nima uchun tashlab ketdi? Matndan aynan o‘sha joyni topib o‘qing va Billga baho bering”, “3. Yo‘lovchi nima sababdan xaltasidagi oltinlardan voz kechdi?”, “4. Hikoya qahramoni yo‘l bo‘yi qorin to‘ydirish g‘amida qanday mashaqqatlarni boshdan kechiradi?”, “7. Hikoya qahramoni qanday qilib tirik qoldi?”, “9. Jek London asarlari asosida suratga olingan filmlarni ko‘rganmisiz?” tarzidagi asarda javoblari mavjud, ularning aksariyati sujet qismlarini aynan qayta hikoyalash yoki tasdiqlashni talab etadigan (ko‘rganman yoki ko‘rmaganman), ikki o‘rindagina munosabat bildirish va baho berishni talab qiladigan savollar uchraydi.

Darslikda qisman fikrlashga yoki qiyoslashga undaydigan savollar ham mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: “5. Adib o‘z hikoyasiga kasal bo‘ri obrazini nima sababdan kiritgan?”, “6. Kasal bo‘ri bilan yo‘lovchi holatini o‘zaro qiyoslab, fikr bildiring”, “8. Ushbu asarning tarbiyaviy qiymatini tushuntirib bering”, “10. Shu hikoya mazmuniga yaqin film tomosha qilgan bo‘lsangiz, badiiy asar va filmga xos xususiyatlarni qiyoslang” [4: 170-b.]. Lekin bu jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, moddiy va ma‘naviy qadriyatlar haqida tushunchalari va kuzatishlari ancha shakllanib ulgurgan o‘quvchilarga juda oddiy va ma‘naviy ehtiyojlari rivoji uchun yetarli emasligini ta‘kidlash joiz. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, tadqiqotchilik layoqati muammo yuzasidan yechimlarni izlash, topish, mushohada yuritish, solishtirish, umumlashtirish, qo‘llash jarayonida namoyon bo‘ladi. Shu bois o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasi tipik elementlari sifatida: a) o‘quvchi faoliyati maqsadini aniqlash; b) maqsadni amalga oshirish mexanizmini amalga oshirish (rejalashtirilgan harakatlarning predmeti va vositalarini belgilash); d) erishilgan natijalarning

qo‘yilgan maqsad bilan muvofiqligini aks ettirish, natijalarni tahlil qilish kabilarni keltirish mumkin.

Demak, o‘quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga adabiy ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali shakli sifatida qarash mumkin. Shuningdek, u adabiyot fani bo‘yicha Davlat ta’lim standartida belgilangan adabiy-nutqiy va badiiy asarlarni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlaridan biri bo‘lib, kelgusida ta’lim oluvchilarning tadqiqot yondashuvini faoliyatining turli sohalariga o‘tkazish va qo‘llashga tegishli shart-sharoit yaratadi. Adabiy ta’limda o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati motivatsiyasini oshirishga doir bir qator metodlarni qo‘llash samaradorligi bayon etiladi. Bu borada quyidagi metodlarning bir qator xususiyatlari mavjud:

**Biografik metod.** Bu metod yozuvchining hayot yo‘li, shaxsiyati bilan asarlari xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Xotiralarini o‘rganish, tanqidiy maqolalari, arxiv materiallarini tahlil qilish asosida ijodining muhim qirralarini o‘quvchi tasavvurida jonlantiradi. Masalan, Said Ahmad ijodini o‘rganishda uning shaxsiyatiga chuqurroq kirish imkonini beradigan, hayotining ma’lum davrlari xususida etyud tarzidagi – rafiqasi S.Zunnunovaga yozgan maktublarini o‘rganishni bunga misol qilish mumkin. Zero, S.Kambarova ta’kidlaganidek, “ayrim asarlari yuzasidan shunchaki fikr yuritish orqali biror yozuvchi ma’naviy olamiga yetarlicha baho berib bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan olganda, iodkor xarakteri, dunyoqarashi va hayotiy maslagi yaratgan asarlarida emas, balki zamondoshlari, yaqin insonlariga yo‘llagan xatlari, yuritgan kundaliguy tundaliklariga (A.Muxtor. “Uyqu qochganda”. 1997) chuqurroq nazar tashlash orqali yanada oydinlashadi” [1: 33-b.]. S.Ayniyning “Esdaliklar”, Oybekning “Bolalik”, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, N.Safarovning “Ko‘rgan-kechirganlarim”, G‘.G‘ulomning “Shum bola”, N.Fozilovning “Topdim-u yo‘qotmadim”, O.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” kabi asarlarda qahramonlarning boshidan kechirganlari emas, balki ijodkorlarning o‘z hayoti

orqali hayotga, jamiyatdagi ayrim muammolarga o‘z nuqtayi nazarlarini ifodalangani ham barcha yoshdagi o‘quvchilarda birdek qiziqish uyg‘otadi. Bunda ijodkorning “men”ini ochishga yordam beradigan kognitiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchi N.Ubaydullayev qayd etganidek, ijodkor shaxsiyatidan xabardorlik unga adabiy portert sifatida qarashdan ko‘ra jonli odamdek yondashishga olib keladi. Yozuvchi shaxsiga xos xususiyatlarni uning bitganlari orqali o‘rganishga yo‘naltirsa, o‘quvchilar o‘rganayotgan asarlaridan zarur ma‘noni anglab yetadi. Natijada o‘quvchilar ijodiy fikrlay boshlaydilar [5; 23-b.].

**Qiyosiy metod** ikki yoki undan ortiq asarni uslubi, voqealarni yoritish doirasi, obrazlar, badiiy detal kabi unsurlar bo‘yicha taqqoslashga zarur sharoit yaratadi. Natijada badiiy matnni sharhlash, baholash yuzasidan o‘quvchining o‘z nuqtayi nazari paydo bo‘ladi. Qiyoslash turli yozuchilar tomonidan muayyan qahramon obrazi xususiyatlarini ochib berish, yoki muayyan adib ijodiy yo‘nalishidagi umumiy yoki farqli tomonlarini yoritishga imkon yaratadi. Masalan, Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda xamsachilik an‘analariga alohida to‘xtalish, Nizomiy Ganjaviy boshlagan an‘ananing davomchilari sifatida Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylarning bu boradagi faoliyatini misol qilib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bunda jadval, diagramma shaklidagi grafik organayzerlarning imkoniyatlaridan unumi foydalanish mumkin.

No	Ijodkorlar	Asar nomi	Dostonlar tartibi
1	Ozar shoiri Nizomiy Ganjaviy	“Panj ganj” (“Besh xazina”)	“Mahzan ul-asror” (“Sirlar xazinasini”), “Xisrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”), “Iskandarnoma”.
2	Hind shoiri Xisrav Dehlaviy	“Xamsa” (“Beshlik”)	“Matla ul-anvor” (“Nurlarning boshlanmasi”), “Shirin va Xisrav”, “Majnun va Layli”, “Hasht bihisht” (“Sakkiz jannat”), “Oynai Iskandariy”.
3	Tojik shoiri Abduramon	“Haft avrang” (“Yetti	“Silsilat uz-zahab” (“Oltin zanjir”), “Salomon va Absol”, “Tuhfat ul-ahror”

	Jomiy	qaroqchi yulduz” yoki “Yetti taxt”)	(“Nuroniylar tuhfası”), “Suhbat ul-abror” (“Taqvodorlar tasbehi”), “Yusuf va Zulayxo”, “Layli va Majnun”, “Xiradnomayi Iskandar” (“Iskandarning donishmandlik kitobi”).
4	O‘zbek shoiri Alisher Navoiy	“Xamsa” (“Beshlik”)	“Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyor”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”).

Adabiyotni san’atning boshqa turlari bilan ham qiyoslash ham san’at turlarining o‘ziga xosliklarini yoritishga xizmat qiladi. Masalan, “Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini o‘rganishda dostonlarda ishlangan miniatyuralar (“No‘shirvon malika huzurida”, “Yosuman Shirinning “o‘limi” haqida Farhodga xabar bermoqda”, “Majnun Laylining uyida”, “Bahrom va Dilorom ovda”, “Bahrom oltin qasrda”, “Bahrom yashil qasrda”, “Bahrom gulgun qasrda”, “Bahrom moviy qasrda”, “Bahrom sandal qasrad”, “Bahrom oq qasrda”; “Iskandarning Doro bilan jangi”, “Iskandar Chin mulkida) shoir va musavvirning ifoda yo‘sini, borliqning o‘ziga xosliklarini ko‘rish mahorati, ikki xil san’at asaridagi umumiy g‘oyaning mushtarak jihatlaridan dalolat beradi. Dostonlarga ishlangan miniatyura asarlari san’at turlariga xos obraz yaratish materiallari, estetik tamoyillari, undagi g‘oyani ifodalash uslublari xususida tasavvur uyg‘otadi. Bu borada professor Q.Yo‘ldoshev o‘rinli ta’kidlaganidek, qiyoslashda “oldin solishtirilayotgan bir narsa to‘g‘risida atroflicha to‘xtalib, keyin boshqasi haqida fikr yuritgandan ko‘ra qiyoslanayotgan obrazlar, asarlar yoki unsurlar to‘g‘risida parallel fikrlash samarali bo‘ladi. Bunda o‘quvchi chalg‘imaydi, qiyoslanayotgan bir narsa to‘g‘risida ko‘p fikr bildirib, boshqasi haqida mulohaza yurtishga imkonsiz bo‘lib qolmaydi” [6: 35-b.].

**Madaniy-tarixiy metod.** U manbalarni o‘rganish asosida madaniy-tarixiy fakt va hodisalarni tahlil qilishni nazarda tutadi. Madaniyat namunalari, tarixiy detallarning asarda tasvirlanishi, real voqelik bilan badiiy to‘qima o‘rtasidagi

ayrim jihatlarning muallifga yoki jamiyatga ta’sirini anglatishda o‘quvchilarga qulaylik yaratadi. Bu asarni hayotdan ajralmagan holda ko‘rishdagi maqbul yo‘ldir. Madaniy-tarixiy metod asosida badiiy asarda aks etgan tarixiy jarayonning bir butunligini asoslashga, madaniyat tushunchalari orqali xalq hayotining turli jihatlari yoritilganini tushunishga harakat qilinadi. Qalamga olingan tuzumda odamlarning turmush tazri, madaniy hayotning shakllanishi jarayoni e’tiborga olinadi. Masalan, M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi o‘tgan asr boshlaridagi ijtimoiy hayot nafasi sezilishi, detal va manzaralar, odamlarning o‘y-xayollari, tafakkur tarzi o‘quvchilarga asar ruhini his qilishlariga, makon va zamon tushunchalarining mohiyatini anglashlariga yo‘l ochadi.

Yuqorida tilga olingan metodlar ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgani bois biz mazkur maqolada muammoli o‘qitishga bevosita aloqador bo‘lgan “Shlyapalar” metodining xususiyatlariga alohida to‘xtalmoqchimiz. Bu metodning joriylanishi, asosan, nemis pedagogi Edvard de Bono nomi bilan bog‘liq.

“Shlyapalar” metodi fikrlashning turfa xil usullarini tezda almashtirish orqali turli rangdagi shlyapalarni o‘quvchilarga kiygizish orqali tashkil etiladi. Bunda har bir rangning mazmunidan kelib chiqib vazifalar yuklatiladi: Xususan:

“Oq neytral va obyektiv. Oq shapka – bu obyektiv faktlar va raqamlar.

Qizil rang g‘azabni, ehtiros va hissiyotni bildiradi. Qizil qalpoqcha hissiyotni beradi.

Qora – xira va inkor qiluvchilar. Qora shapka salbiy tomonlarini oqlaydi – nima uchun biror narsa amalga oshmaydi.

Sariq – quyoshli va ijobiy rang. Sariq shapka optimizmni nazarda tutadi va umid va ijobiy fikrlash bilan bog‘liq.

Yashil – o‘sayotgan o‘tlarning rangi. Yashil shlyapa ijodkorlik va yangi g‘oyalarni anglatadi.

Moviy – sovuq; bundan tashqari, bu hamma narsadan ustun bo‘lgan osmonning rangi. Ko‘k shlyapa o‘ylash jarayonini tashkil qilish va nazorat qilish, shuningdek, qolgan shlyapalarni ishlatish uchun javobgardir” [3: 5-b.].

Bunda shlyapalarni doimiy ravishda almashtirib turish sharti belgilanadi. Masalan, adabiyotdagi yangi psixologik tip sifatida Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qahramoni Miryoqub haqida gapirilganda, darsda uning shaxsi, kechinmalari, o‘y-xayollarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradigan “Shlyapalar” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu usul har bir “shlyapa” o‘z rangi va o‘ziga xos qidiruv vazifasiga ega bo‘lgan guruh ishini ta’minlaydi.

Yuqoridagilarga tayanilsa, vazifalarni quyidagicha taqsimlash mumkin bo‘ladi:

1. “Oq shlyapalilar” guruhiga: romanda ko‘tarilgan muammolarni izlash.
2. “Qizil shlyapalilar” jamoasiga: qahramonning xatti-harakatlariga o‘z nuqtayi nazarini bildirish: asardagi badiiy ifoda vositalarini aniqlash: portret tasviri, detallar va nutq xususiyatlariga munosabat bildirish.
3. “Qora shlyapalilar” a‘zo guruhga: Miryoqub faoliyatining tanqidiy tahlili, uning harakatlaridagi qarama-qarshiliklar.
4. “Sariq shlyapalilar” jamoasiga: Miryoqubning ijobiy ishlariga munosabat bildirish.
5. “Yashil shlyapalilar” guruhiga: qahramonning vaziyatdan chiqish yo‘llarini taklif etish.
6. “Ko‘k shlyapali” ishtirokchilarga: qahramon tushgan muammoli vaziyatlarning sabablari va yechimlarini izlash.

Bunda quyidagi jihatlariga e’tibor qaratiladi:



Oq shlyapalilarga o‘rganilayotgan obyekt (qahramon, detal) haqida qanday ma’lumotga egaligi, u haqdagi qanday muhim ma’lumotlarga ehtiyoji borligi, ularni qay tarzda topish mumkinligi haqidagi savollar beriladi.

Qizil shlyapalilardan his-tuyg‘ulari, intuiativ fikrlarini shunchaki biror asossiz bayon etish so‘raladi.

Qora shlyapalilarga tanqidiy fikrlash, masalaga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, kamchiliklar topish, xatolarning oldini olish, boshdan belgilangan shartlarga amal qilish, g‘oyani buzmaslik talabi qo‘yiladi.

Sariq shlyapalilar rejani amalga oshirish asosida muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Kreativ fikrlash, yangi g‘oyalarni qidirish sharti belgilanadigan yashil shlyapalilar oldiga o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni o‘zgacha usul bilan ham yechish yoxud ularga boshqacha ta’rif berish haqidagi savollar qo‘yiladi.

Ko‘k shlyapalilar ham, o‘z navbatida, mavzularni aniqlash, ular yuzasidan obyektiv nazorat va fikrlash usullarini tekshirish, fikrlash jarayonida ko‘rsatmalar berish va boshqa shlyapalilar faoliyatini jadallashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilganda, adabiyot darslarida tashkil etiladigan bunday izlanish faoliyatini yangi pedagogik g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Uning mohiyati badiiy asarlarni tahlil qilishga doir ijodiy tadqiqot loyihasini yaratishdir. Ijodiy tadqiqot qoidasi bo‘lib ishning uy vazifasi sifatida bajarilishi hisoblanadi. Izlanishlar davomida o‘quvchilar kuzatgan, guvohi bo‘lgan yoki o‘qigan ma’lumotlarini assotsiativ idrok etishlarini namoyish etishlari zarur bo‘ladi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kambarova S.I. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: ФАН, 2007.



3. Олимов Қ.Т., Алимов А.А., Алимов А.Т. Узлуксиз таълим тизимида ёшларни билим олишга қизиқтириш масалалари // Uzluksiz ta’lim. – Тошкент, 2013. – № 5.

4. То‘хлиев В., Каримов В., Усмонова К. Adabiyot: 10-sinf: darslik-majmua. II qism / В.То‘хлиев va boshq. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

5. Убайдуллаев Н.Х. Ўқув таҳлилида автобиографик битиклардан фойдаланиш: Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Жиззах, 2022.

6. Yo‘ldosh Q. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli // Global ta’lim va milliy metodika tarqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2020.

6. <https://donschool86.ru/uz/punktuaciya/metod-6-shlyap-myshleniya-edvarda-de-bono-osnovnye-principy-primery.html>